

Sobirov Tolib Ro'ziyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti
professori, pedagogika fanlari nomzodi

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI 4-5 YOSHDAGI BOLALAR IQTIDORINI RIVOJLANISHIDA TASVIRIY FAOLIYATNING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada kelajagimiz bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatini rivojlanishida tasviriy faoliyatning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Buning uchun ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, estetik tarbiyalash masalalariga e'tibor qaratiladi. Bolalarning tasviriy faoliyatlarining rivojlanish vazifalari, ijodiy tafakkurni rivojlantirish kabi xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish kerakligi ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar; Jorj Lend, tajriba, tasviriy faoliyat, kashfiyot, mahorat, maktabgacha ta'lim, bolalar, estetika, tarbiya.

ДОШКОЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УЧРЕЖДЕНИЯ РОЛЬ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ОДАРЕННОСТИ ДЕТЕЙ 4-5 ЛЕТ

Аннотация. В статье рассматривается значение изобразительной деятельности в развитии способностей дошкольников, которые являются нашим будущим. Для этого уделяется внимание вопросам развития творческих способностей и эстетического воспитания. Подчеркивается необходимость формирования и развития таких качеств, как задачи развития изобразительной деятельности детей и развитие творческого мышления.

Ключевые слова: Джордж Ленд, эксперимент, изобразительная деятельность, открытие, мастерство, дошкольное образование, дети, эстетика, воспитание.

THE ROLE OF VISUAL ACTIVITIES IN THE DEVELOPMENT OF THE TALENTS OF CHILDREN AGED 4-5 IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. The article examines the importance of visual arts activities in the development of preschool children's abilities, who represent our future. Special attention is given to the issues of fostering creative abilities and aesthetic education. The necessity of forming and developing such qualities as the objectives of children's visual arts activities and the development of creative thinking is emphasized.

Keywords: George Land, experiment, artistic activity, discovery, mastery, preschool education, children, aesthetics, upbringing.

Kirish. Ko'p ota-onalar farzandlarini buyuk inson bo'lib yetishishni xohlashadi. Ammo ko'p hollarda bu yo'lda eng katta to'siq o'zlari bo'lishlari mumkindan nboralar qanchalik to'g'ri. 1960 yillarda Amerika Qo'shma Shtatlaridagi "NASA" ilmiy tadqiqotlar markazidagi Jorj Lend boshchiligidagi jamoa ajoyib bir tadqiqot o'tkazdi. Jamoa besh yoshdagi bolalar ustida tajriba o'tkazishadi. Tajribaning asosiy maqsadi ularning orasidagi talentlarni aniqlash. Ijodiylik qobiliyati, yaratuvchanlik mahorati umuman olganda buyuklikdagi imkoniyati qanchaligini bilish edi. Tajriba shuni ko'rsatdiki 5 yoshar bolalarning orasida 98% bolada buyuklik imkoniyati bor. Agar ular to'g'ri tarbiyalansa zamonasining eng buyuk shaxslari bo'lib yetishish mumkin ekan. Oradan besh yil o'tib bu tajriba qayta o'tkazilganda bu ko'rsatkich 98% dan 30% ga tushib

qolgan. Yigirma yoshdan keyingi tajriba esa buyuklikdan nasibasi bor yigitlarning bor-yo'g'i 2% qolganini ko'rsatadi. Tadqiqotdan shunday xulosa kelib chiqadi. Ya'ni har bir bolalarda buyuk inson yashaydi. Lekin atrof-dagi muhit u insonni yeb bitirib ko'mib qo'yadi, xolos. Agar farzandingiz 20 yoshga to'lmagan bo'lsa sizda hali imkon bor, deyishadi tadqiqotchilar.

Men mutaxassis sifatida 4 va 5 yoshli bolalarni bu yo'lda to'g'ri tarbiyalashda "tasviriy faoliyat"ning ham o'z o'rnini bordeb hisoblayman. Olim ta'limning ko'pgina ixtisosliklarida tahsil oladigan voyaga yetgan insonlarda bizlar oliy ta'limda o'qitadigan Chizma geometriya fanini o'rganishning asosiy maqsadlaridan biri ularni fazoviy tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib hisoblanadi. Har qanday g'oyalar va kashfiyotlar dastlab insonning tasavvurida shakllanadi. Shundan so'ng kashfiyotlar dunyo yuzini ko'radi. Demak, kashfiyotchi insonga tasavvur qilish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo'lsa uning yaratuvchanlik qobiliyati

shuncha oshadi. Yuqorida aytilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, insonni hayotga to'g'ri yo'naltirishni uning maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab tarbiyalash kerak ekan.

Materiallar va metodlar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Tasviriy faoliyat"ning nazariy va amaliy asoslarini o'rgatish alohida o'rin egallaydi. Bu borada maktabgacha ta'lim bolalari uchun tasviriy faoliyatga o'rgatishning pedagoglar tomonidan o'ziga xos turli dasturlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradigan, tasavvurini va estetik didini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon bolalar uchun nafaqat san'at bilan tanishuv, balki ular orqali o'z dunyoqarashini ifoda etishga imkon beradi. 4-5 yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyatga o'rgatishning umumiy masalalari bir necha qismga bo'lish mumkin:

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Bolalarning tasavvur va fantaziyasini kengaytirish. Tasviriy vositalar (rang, shakl, kompozitsiya) yordamida o'z fikrini ifoda qilishga o'rgatish. Bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilamiz: Aytinglarchi daraxt barglari qanday rangda, kuz fasliga kelib bu ranglar qanday tusga kiradi? Siz onangizga qanday rangdagi gullarni sovg'a qilishni xohlaysiz? Bulut bo'lmagan paytda osmonning rangi qanaqa bo'ladi? Bizlar uxlaydigan kravatimiz qanday shaklda? Uyingizdagi to'rtburchak, aylana shakldagi buyumlar va uy jihozlarini bilasizmi? va h.k.z.

San'atni tushunishga va idrok etishga o'rgatish. Bolalarga tasviriy san'at turlari va uslublari haqida bilim berish. Go'zallikni ko'ra olish va qadrlash qobiliyatini shakllantirish. Bunda tasviriy san'atning portret, manzara va boshqa janrlari haqida tushuncha beriladi. Rassomlarning bahor, yoz, qish manzaralari aks ettirilgan asarlaridagi ranglar, shakllar va kompozitsiyalar bolalar bilan birgalikda muhokama qilinadi.

Estetik tarbiyani rivojlantirish. Bolalarning atrof-muhitdagi go'zallikni idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali ularning didini shakllantirish mumkin. Bahorda tog'larda qorlar erib ariqlarda sharqirab suvlar oqishini, ariqlar bo'ylarida ko'm-ko'k maysalar o'sib chiqishini, qir adirlarda qip-qizil lolalar ochilishini og'zaki izohlab berish yoki turli rasmlar orqali ko'rsatib izohlash orqali va shunga o'xshash misollar bilan bolalarning estetik tarbiyasini rivojlantirish mumkin. Bu kabi mashg'ulotlar bolalarda yaxshi xulq-atvor va tartibni san'at vositasida shakllantirishga yordam beradi. Bolalar tasviriy faoliyat orqali atrof-muhitdagi predmetlarni va hodisalarni kuzatib, ularga nisbatan turli his-tuyg'ular va tasavvurlarni ifoda etishni o'rganadilar. Bu atrof-muhitni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi.

Bolalarning tasviriy faoliyatlarining rivojlanish vazifalari quyidagilardan iborat: Yosh bolalarning tasviriy faoliyatlari rivojlanishi uchun bir qator muhim vazifalar mavjud. Tasviriy faoliyat orqali bolalar ijodiy va estetik rivojlanishni amalga oshiradilar, ular o'z fikrlarini ifoda etish va atrof-muhitni tushunishda yordam beradigan vositalarni o'zlashtiradilar. Bu faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish. Tasviriy faoliyat bolalarga nafaqat fikrlash, balki o'z fikrini ifodalash, his-tuyg'ularini va tasavvurlarini boshqalarga ifodalab berish kabi

80 imkoniyatlarni shakllantiradi. Ularning ijodiy fikrlash va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi.

Berilgan vazifalarni bajarish va mustaqillikni rivojlantirish. Bolalar tasviriy faoliyatni amalga oshirayotganlarida, ular o'z faoliyatlarini mustaqil ravishda bajarish va qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Bu ularning mustaqil fikrlash va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Tasviriy faoliyat guruhlarda amalga oshirilganda, bolalar bir-birlari bilan fikr almashish, birgalikda ishlash va bir-birini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ko'nikmalarni shakllantirish. Ranglar, shakllar, kompozitsiya kabi tasviriy faoliyat elementlarini o'rganish bolalar uchun muhim bo'ladi. Bu ko'nikmalar kelajakda boshqa sohalarda ham yordam beradi, masalan, matematika, tabiatni o'rganish va boshqa ijodiy faoliyatlarda. Tasviriy faoliyat bolalarda estetik didni, go'zallikni his qilish va uning qiymatini anglashga yordam beradi. Bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi va hissiy rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bularning barchasi bolalar uchun muhim rivojlanish bosqichlaridir va tasviriy faoliyat ularni mukammal shaxs sifatida shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat bolalarning estetik tarbiyasini shakllantirish, tasavvurlarini kengaytirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu faoliyat bolalarda san'at va go'zallikka qiziqish uyg'otish, atrof-muhitni idrok qilish va uni tasvirlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga, maktab yoshiga borganda barcha fanlarni ozlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib tasviriy faoliyat ijodiy qobiliyatni, yaratuvchanlik mahoratini, umuman olganda buyuklikdagi imkoniyatini oshirishga xizmat qilsa ajab emas

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.Azamova "Maktabgacha pedagogika" Darslik, Adabiyot uchqunlari nashriyoti.-Toshkent: 2018 -434 bet
2. Sh.T.Xasanova "Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma. -Toshkent: 2020 yil Tafakkur 192 bet
3. D.Mutalova, G.Tojiboyeva, D.Maxmudova Maktabgacha talimda pedagogika. Darslik. - Chirchiq: "Histore and paje" 2022,- 188 bet
4. Sh.A.Sodiqova Maktabgacha pedagogika. Darslik. "Tafakkur bo'stoni",-Тошкент: 2013, -293 bet
5. Собиров Т. Р. АРИСТОТЕЛЬ ВА ЭВКЛИД ТАДҚИҚОТЛАРИДАГИ ИЛМИЙ НАЗАРИЯЛАРГА ФАРОБИЙНИНГ БИЛДИРГАН ФИКРЛАРИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 1010-1013.
6. Бадиев, М. М., Собиров, Т. Р., Авлиякулов, М. М., & Азимов, С. С. (2021). Анализ обратных задач в начертательной геометрии. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 76-77.
7. Авлиякулов, М. М., Собиров, Т. Р., Бадиев, М. М., & Азимов, С. С. (2021). Общие законы композиции в резьбе по дереву. *European science*, (2 (58)), 32-34.
8. Собиров Т. Р. и др. Об общественном положении зодчих и архитекторов среднего и ближнего востока в IX-XV веках //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 59-62.
9. Собиров Т. Р. Обучение геометрическому орнаменту в узбекской школе. – 1993.
10. Ёдгоров Ж., Собиров Т. Р., Ёдгоров Н. Ж. Геометрик ва проекцион чизмачилик – Тошкент : Фан. – 2008
10. О.А.Макмудова "Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish metodikasi" o'quv qo'llanma. "Niso Poligraf" nashriyoti ,-Toshkent 2019 yil ,-151 bet.
11. N.Kayumova "Maktabgacha pedagogika" -Toshkent: 2013 yil TDPU o'quv qo'llanma.